

**II-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova  
suvi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha  
NAMUNAVIY SHARTNOMA**

2024 y. 11 yanvar

9900066112-son

(shartnoma imzolangan joy)

Samargand shahri (tumani)

Ushbu shartnomani "Samargand saev ta'minotchi" MChJ, keyingi o'rinnlarda  
"Ta'minotchi" deb yurituvchi, nizom asosida faoliyat yurituvchi  
(F.I.O.) shaxsida bir tomonidan, hamda keyingi o'rinnlarda "Iste'molchi" deb yurituvchi  
SANU nizom asosida ish olib boruvchi  
rektor V.B. Jumasov, ikinchi  
tomonidan quyidagi haqida tuzdilar: (F.I.O.)

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. 20<sup>24</sup> yil uchun suv yetkazish hajimi ushbu shartnomaga muvofig II guruh iste'molchisi (keyingi o'rinnlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) uchun suv yetkazib berish oqova 4816 narx bo'yicha 16 445 m<sup>3</sup>ni:

1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun **6384 so'm** (QQS bilan), 1 m<sup>3</sup> oqova suv uchun **4816 so'm** (QQS bilan)  
Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 79 188 120 so'mni tashkil qildi  
(summa yozuv bilan).

Shu jumladan, budget mablag'laridan 79 188 120 so'm, budgetdan tashqari mablag'laridan — so'm to'lanishi ko'zda tutilgan. Budget korxona tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan ajratilgan summadan ko'p hisoblanganda qo'shimcha yoki boshqa mag'lag'lar hisobiga to'lab berishi shart.

Iste'molchiga yetkazilgan suv va qabul qilingan oqova suvlar uchun hisob-kitoblar Iste'molchi bilan (budget tashkilotlaridan tashqari) avans to'lovlari tartibida, belgilangan muddatda to'liq hisob-kitob qilishi sharti bilan yoki Ta'minotchi tomonidan hisob varaqasi (schyot-faktura)lar taqdim etish orqali, shuningdek, budget tashkilotlar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy bo'llimlari orqali o'zaro hisob-kitob qilishga o'tkazilgan mablag'lar bilan Ta'minotchi taqdim etadigan schyot-fakturalar bo'yicha amalgaoshlari.

1.2. Ta'minotchi Iste'molchini sifatlari (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofig) ichimlik suvi bilan ta'minlash va Iste'molchidan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Iste'molchi ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish asbobi mayjud bo'lganda hisobligich ko'rsatkichlari bo'yicha to'lovlarни amalga oshiradi.

Iste'molchining hisobida yetarli miqdordagi mablag' mayjud bo'lmagan taqdirda keyingi oy uchun to'lov qonunchilikda belgilangan tartibda tarafalarning kelishuviga asosan amalga oshiriladi.

Bunda, iste'molchi xar oyning 10-sanasiga qadar ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati bo'yicha keyingi oy uchun oldindan to'lovnini hisobga olish asbobining oxirgi uch oyning o'rtaча sarfi bo'yicha amalga oshirishi mumkin.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchilikli talabalariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldag'i 194-soni qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilariga suv ta'minoti va oqova sun'vi chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari"ga (keyinchalik matnda – Qoidalalar deb yuritiladi) hamda "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi 2022-yil 22-iyuldag'i 784-soni O'zbekiston Respublikasi qonuniga roya etishi, shuningdek, Iste'molchi, Ta'minotchi tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ularish uchun ruxsat etuvchi hujjalarga roya qilishi majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1.5. Yangi iste'molchilar shu jumladan, mayjud iste'molchilarning yangitdan ishga tushiriladigan, tovarlarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) jarayonida belgilangan normadan yuqori darajada ifoslangan oqova suvlarni hosil qiluvchi hisoblarini oqova suvlar tarmoqlariga ulashta faqat oqova suvlarning belgilangan normaga qadar tozalanishini ta'minlaydigan lokal tozalash inshootlari mayjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi, aksincha lokal tozalash inshooti mayjud bo'lmaganida yoki yetarli sifatida ishlamaganda ta'minotchi belgilangan tartibda o'zaro shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi.

**II. Umumiy qoidalalar**

2.1. Iste'molchi Ta'minotchi ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ularishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. Iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar Ta'minotchi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

**2.3.** Agar Iste'molchi va unga ulangan subiste'molchi turli guruh iste'molchilariga mansub bo'lsa, Ta'minotchi bilan shartnomani Iste'molchi ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish asbobini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

Iste'molchi (subiste'molchi)ga berilgan ichimlik suv hajmi uchun to'lovlar Ta'minotchiga, ularning suvni hisobga olish asbobni ko'rsatkichlari bo'yicha va ular mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida to'lanadi.

Ta'minotchi bilan shartnoma tuzgan Iste'molchi o'zi mansub guruhdagi subiste'molchilarga ulangan bo'lsa, subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv va chiqarilgan oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar asosiy iste'molchi bilan, u mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, Iste'molchi, o'zi ishlatgan suv uchun Ta'minotchiga amaldagi tariflar asosida to'lovlarни amalga oshirishda subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv hajmlarini ham inobatga olgan holda hisob-kitob qiladi.

**2.4.** Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiغا quyidagi istrisno holatlarda:

a) irrigatsiya suvi bo'Imaganda;

b) ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtida (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.

**2.5.** Ichimlik suv oqova suv xizmatlari Iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish hamda texnologik va ishlab chiqarish jayaronlari uchun foydalananadi.

**2.6.** Suvni hisobga olish asbobi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tekshirilgan va tamg'alangan bo'lishi va suv o'chash tarmog'i suv ta'minotchi tashkilot tomonidan plombalanishi shart. Shuningdek, ichimlik va oqova suvini hisobga olish asbobini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda o'rnatilgan tartib va qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

**2.7.** Iste'molchiga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'chash asbobining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, hisobning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda Iste'molchi bilan kelishiladi.

Iste'molchida suvni hisobga olish asbobining ishlashi nazorat qilinganda, o'chovlarning texnik tavsifnomasida yo'l qo'yiladigan minimal chegaradan kam miqdorda suv iste'mol qilingan taqdirda Ta'minotchi suv o'chash uzelini amalda sarflanayotgan suv hajmiga mos, kichikroq diametriddagi asbobga (berilgan kundan keyingi 30 kalendar kun ichida) qayta jihozlashga ko'rsatma beradi. Bu ko'rsatma bajarilmagan taqdirda suvdan foydalanimish va oqova suvlarni chiqarish uchun to'lovlar Qoidalarming 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

**2.8.** Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash asboblarini ishga tushirish, almashtirish, yangi subiste'molchilarining ularanish Iste'molchi tomonidan faqat Ta'minotchi tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular Iste'molchingin so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. Ta'minotchidagi olingan texnik shartlar Iste'molchi buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

**2.9.** Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi Ta'minotchi tomonidan, Iste'molchi va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

**2.10.** Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar o'zgargan sanasidan qat'iy nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan Iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va Iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kuchga kiritilgan sanadan e'tibor to'lovlarini amalga oshirishi shart.

**2.11.** Quyidagilar Ta'minotchi bilan Iste'molchi o'tsasidagi, kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalari)ga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlashi va tarmoqning yuzasidan javobgarlik chegaralarini hisoblanadi:

a) suv iste'moli uchun — kommunal tarmoqqi ularishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvgaga ularish, Iste'molchingin ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova suvlarni chiqarish (kanalizatsiya) uchun — Iste'molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'i iga ularish niqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug'i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog'ida yashashga bo'lsa, ushbu quduq Ta'minotchi kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblananib, unga tutashiruvchi foydalanimish chizig'i esa Iste'molchingin mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

**2.12.** Respublika hududiga texnik talablarga javob bermaydigan suv hisoblagichlarni va ularning qo'shimcha vositalarini olib kirish hamda o'rnatish taqilqanadi.

### III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

#### 3.1. Iste'molchingin huquqlari:

a) Ta'minotchidan, ushbu shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzuksiz ravishda yoki Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida amalga oshirilishini, o'z mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat (O'ZDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblarini o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun Ta'minotchidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarini to'liq amalga oshirgan holda shartnomasini bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova sunvi chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

e) Ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova sunvi chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ulami amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tariblarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarini bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova sunvi chiqarish bo'yicha xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatida ekanligi to'g'risidagi dalolatnomasi taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida Ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

j) Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifati ichimlik suv bilan ta'minlanaganlik (sifatisiz ichimlik suv mayjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelgingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

### 3.2. Iste'molchi quydagilarga majbur:

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zlarining hududida va tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarining zarur darajada qo'riganishini ta'minlash, ularning buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduqlarning qopqog'ini muz va qordan tozalash, Ta'minotchi tomonidan o'rnatilgan plombalarining saqlanishini nazorat qilish, yer ustti suv oqimlarining quduqlar yonidani oqizib yuborilishini ta'minlash, yong'in gidrantlariga kirib borish yo'laklarini tirkband qilmaslik, yong'in gidrantlarini ko'rsatkichlarining ishga yaroqligini kuzatib borish va mavjud bo'lgan yong'in gidrantlarini va yong'in kranlarini plombalash uchun taqdim qilish;

v) turli predmet va materiallarning uyum bo'lib saqlanishiga, shuningdek o'z hududida yoki tasarrufida bo'lgan ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalar ustiда hamda ichimlik suv va kanalizatsiya tashqi joylashtuvuda bo'lgan (ko'chada va kvartal ichida) yerlarda biror-bir inshootlarni qurishiga yo'l qo'ymaslik. Amalda tarmoqlarda o'zboshimchaliq bilan qurilgan inshootlarda avariya sodir bo'lgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidani buzganning zimmasiga yuklanadi;

g) tranzit kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardagi o'zlarini aniqlashgan nosozliklar yoki shikastlanishlar haqida Ta'minotchiga zudlik bilan xabar berish;

d) sunvi hisobga olish asboblarida yaqqol ko'rinish turgan nosozliklar aniqlanganda (shu jumladan, tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat bo'yicha ham) Ta'minotchiga uning elektron pochtaси orqali yoki uning yagona "Call Markazi (1255)" raqamiga qo'nq'iroq qilgan holda xabar berish;

e) shartnoma doirasidagi majburiyatlarini bajarish, joriy oyning 23-25-sanasida sunvi hisobga olish asboblar ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borish, joriy oyning so'nggi sanasigacha Ta'minotchiga ko'rsatkich ma'lumotlarni Ta'minotchingin elektron manzili yoki telefon raqami orqali yohud Ta'minotchi joylashgan manzilga borga holda taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish;

yo) suv sarfi va oqova suvlari oqizilishining shartnomada belgilangan hajmlardan oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) subiste'molchilardagi suv sarfini nazorat qilish va barcha turdag'i suvni yo'qotishlar oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

z) o'ziga qarashli va u xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardan texnik jihatdan samarali foydalanimishi ta'minlash;

i) oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga belgilangan normadan yuqori darajada ifloslangan oqova suvlarni oqizayotgan yuridik shaxslar qonunchiliklari belgilangan tartibda kompensatsiya to'lovlarni amalga oshirish;

y) kanalizatsiya tarmoq'iga oqiziladigan oqova suvlari sifati bo'yicha monitoring o'matish;

k) o'z hududida joylashgan suv o'lehash uzeli, kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida olib boriladigan barcha turdag'i ishlarni bajarishga begona shaxslarni kiritmaslik;

l) Ta'minotchi vakilining ishtirokisiz quduqlar (kamaralar) qopqog'ini ochishga ruxsat bermaslik;

m) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lgan holatlarda iste'molchi hududida joylashgan kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga yomg'ir va erigan qor suvlaringin oqizilishiga yo'l qo'ymaslik (Iste'molchiga bog'liq bo'lagan fors-major holatlarda oqizilishi bundan mustasno). Mazkur huquqbazarlik aniqlangan taqdirda Ta'minotchi vakili, belgilangan tartibda, Iste'molchiga nisbatan javobgarlik choralarini belgilash uchun asos bo'ladigan dalolatnomani tuzadi;

n) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchingin xizmat guvohnomasisiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar to'g'risida ichki ishlarni organlariga xabar berish;

o) masofadan ma'lumot uzatuvchi sunvi hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini ta'minotchiga uzatish.

### 3.3. Ta'minotchingi huquqlari:

a) Ta'minotchi, Iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda sunvi uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatish mumkin:

a.a) Iste'molchiga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqarsiz bo'lganda va Ta'minotchi vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanimishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha Ta'minotchi talablarini Iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

a.b) Ta'minotchi mansabdori shaxsi Iste'molchingin sunvi hisobga olish uzelni, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalar va inshootlarning nazorat qilish hamda sunvi hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarini o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvoqqlashtirish va Ta'minotchi naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asosiz ravishda kiritilmaganda;

a.v) Ta'minotchi tomonidan Iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ularish ishlari amalga oshirilganda;

a.g) Iste'molchi tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchilik bilan ulangani aniqlanganda;

a.d) Iste'molchi tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

a.e) Iste'molchingning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga Ta'minotchidan ularish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomaga oлган subabonentlarning tegishli tartibda ularishi rad etilganda;

a.yo) Iste'molchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlari miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga roya qilmaganda.

b) Ta'minotchi quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

b.a) Ta'minotchingin elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b.b) tabiiy ofatlar ro'y berganda;

b.v) avariya holatlardida;

b.g) yong'i chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

### 3.4. Ta'minotchingin majburiyatlar:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

b) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

v) suv ta'minoti uzlusizligini ta'mirlash (Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida suv berish holatlardan tashqari);

g) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjalilar (PDS) talabi va ichimlik suvdan maxsus foydalanimish ruxsatnomalariga muvofiq oqova suvlarni tozalash ishlari tashkil qilishni ta'minlash;

d) tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

e) Iste'molchingin kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlariga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ularidan foydalanimishni muntazam ravishda nazorat qilib borish, ularidan samarali foydalanimishi tashkilashtirishda Iste'molchiga amaliy yordam ko'rsatish;

yo) Iste'molchidagi suvning behuda oqib ketishi va oqilona foydalanimayotganlik holatlari aniqlash, suv berish va undan foydalanimishni qaf'iy nazorat qilish va hisobga olish;

j) Iste'molchiga suvni hisobga olish individual asboblarini o'rnatish, belgilangan tartib va muddatlarda ularni nazoratdan o'tkazib turish;

z) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchingizning xizmat guvohnomasisiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar haqida ichki ishlar organlari xodimlariga xabar qilish;

i) shartnoma shartlari muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda Iste'molchiga pena to'lash;

y) Iste'molchingin shartnoma shartlari roya etmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

k) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir sutka mobaynida ularning sabablar, xizmat ko'rsatishdagi to'xtalish muddatlari va cheklanishlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarining o'zgarishi sabablar haqida Iste'molchiga axborot berish;

l) ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlarni haqida Iste'molchini uzilishlari boshlangancha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish;

m) ichimlik suvni iste'mol qilishga doir amaldagi va yangi joriy qilingan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjalilar bilan iste'molchini aloqa vositalari (telefon, elektron pochta, ijtimoiy va ommoviy axborot tarmoqlar) orqali xabardor qilish;

n) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommoviy axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari (Ta'minotchingin ijtimoiy tarmoqdagি sahifalari, rasmiy sayti) yordamida Iste'molchini xabardor qilish;

o) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish;

p) iste'molchingin masofadan ma'lumot uzatuvchi suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qabul qilish.

## IV. Tarafalarning javobgarligi

### 4.1. Ta'minotchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) Iste'molchini me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjalarga hamda mazkur shartnomaga muvofiq ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni chiqarish;

b) Iste'molchiga me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjalarga hamda qonunchilik asoslarini va shartnomada ko'rsatilgan talablarga muvofiq (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) sifatli ichimlik suv yetkazib berish;

v) Iste'molchiga ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlariga ularish uchun o'z vaqtida, qonuniy asoslangan texnik shartlami taqdim etish;

g) suvni hisobga olish individual asboblarini o'z vaqtida davlat nazoratidan o'tkazish, belgilangan muddatlarda Iste'molchidagi suvni hisobga olish asboblarining yechib olinishi, o'rnatilishi, ko'rsatkichlarini nazorat qilinishi va tekshiruv o'tkazilishi haqida ogohlantirish;

- d) Iste'molchingin mulkiga yetkazilgan moddiy zarar uchun qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda javob berish;  
 e) shartnoma shartlari va o'ziga yuklangan majburiyatlarini bajarmaganlik.

**4.1.1.** Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan ta'minlashda quyidagi sabablarga ko'ra uzilishlar bo'lganligi uchun javob bermaydi:

- a) Qoidalarning 129-bandida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra suv berish to'liq yoki qisman to'xtaganda;  
 b) Iste'molchingin aybiga ko'ra.

**4.1.2.** Ta'minotchi, agar suv ta'minoti bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yengib bo'lmaydigan kuch yoki suv ta'minoti xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlari Iste'molchi tomonidan buzilganligi tufayli sodir bo'lganini qonun hujjalarda belgilangan tartibda isbotlasa, u sifat buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

**4.1.3.** Tozalash inshootlari, nasos stansiyalar quvvatining yoki kommunal suv quvurlarining suv o'tkazish quvvatining yetarli emasligi tufayli suv ta'minotida muntazam ravishda uzilishlar bo'lgan taqdirda Ta'minotchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda, Iste'molchini unga suv berilishi rejalar haqidagi xabardor qilib, alohida tumaniлага suv berilishi yuzasidan javob beradi. Shu bilan birga, Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan normal ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan sabablarni bararfart etishga doir barcha zarur tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, shuningdek suvni hisobga olish asboblari mayjud bo'lmaganda - suvni berish soatlariga mutanosib ravishda qayta hisob-kitob qilinishi yuzasidan javob beradi.

**4.2.** Iste'molchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) Kanalizatsiya tarmog'iда avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvechi qurilmalarning butligi, saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatlaligi uchun;

b) O'ziga qarashli sanitariya asboblari, kanalizatsiya tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli Iste'molchingin kanalizatsiya tarmoqlarida yoki Ta'minotchida, ichimlik suv va kanalizatsiyaning tashqi tarmoqlarida avariya (tiqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun;

v) Ta'minotchi bilan hisob-kitob qilish uchun foydalananligan suvni hisobga olish asbobi, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfinlari, gidrantlar va uming hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda Ta'minotchi tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlanishi uchun;

g) Ta'minotchiga ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda.

**4.3.** Suvni hisobga olish asbobi va stvol zulfinidagi plombanining saqlanmaganligi va but emasligi aniqlangan taqdirda, so'nggi dalolatnomha tuzilgan sanadan e'tiboran, ammo eng ko'pi bilan uch oydan oshiq bo'lmagan davr uchun, to'lovlar Qoidalarning 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

**4.4.** Plombalangan yong'in zulfinlari va gidrantlaridagi plombalarning uzisiga quyidagi hollarda yo'l qo'yildi:

a) Ta'minotchi bilan kelishilgandan so'ng suv ta'minotining yong'inga qarshi tizimi faoliyati tekshirilganda va yong'in nasoslarini sinovdan o'tkazilganda;

b) Ta'minotchini xabardor qilmagan holda yong'in o'chirilganda va yong'in xavfsizligi organlari tomonidan yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimining sinovlarini o'tkazilganda.

**4.5.** Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalishin to'xtatilganda iste'molchi 24 saat mobaynida Ta'minotchiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnomha taqdirmi etishi va zulfinlarni plombalash uchun Ta'minotchi vakilini chaqirishni shart.

**4.6.** Suv quvuriga o'zboshimchalik bilan ulangan, sovuq suvni hisobga olish asboblarining buzilishiga ataylab yo'l qo'ygan, shuningdek ko'satkichlami o'zgartirish maqsadida hisobga olish asboblariga tashqaridan aralashgan iste'molchilar qonun hujjalarda nazarida tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

#### **V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarining tartibi**

**5.1.** Iste'molchi ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish asbobi mayjud bo'lganda hisoblagich ko'rsatkichlari bo'ycha to'lovlarini amalga oshiradi.

Iste'molchingin hisobida yetarli miqdorda mablag' mayjud bo'lmagan taqdirda keyingi oy uchun to'lov qonunchilikda belgilangan tartibda taraflarning kelishuviga asosan amalga oshiriladi.

Bundan, iste'molchi xar oyning 10-sanasiga qadar ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati bo'yicha keyingi oy uchun oldindan to'lovni hisobga olish asbobining oxirgi uch oyning o'rtaча sarfi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

**5.2.** Iste'molchi shartnomada belgilangan to'lovlarini o'z vaqtida to'lamagan taqdirda to'lovlarining kechiktirilgan har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasing 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim. penya uchun hisob kitob iste'molchi tomonidan joriy oyning 10 sanasigacha oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda joriy oyning 11 sanasidan penya hisoblab boriladi.

Iste'molchi tomonidan to'lovlar amalga oshirilganda debitor qarzdorlik va unga penya hisoblangan bo'lsa avvalo to'langan summa debitor qarzdorligini qoplashga yo'naltiriladi.

**5.3.** Ta'minotchi shartnomada shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismisining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilmagan ishlar) bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

**5.4.** Iste'molchi ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarini shartnomada belgilangan shartlar asosida va tartibda o'z vaqtiga to'lamasa, Ta'minotchi Iste'molchini yozma ravishda xabar qilgan paytdan boshlab 5 ish kuni

o'tgandan keyin qarzlarни qонун hujjatларда belgilangan tartibda Iste'molchini ichimlik suv ta'mиноти va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uзib qо'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

Ichimlik suv ta'mиноти va kanalizatsiya tizimidan ilgari uзib qо'yilgan (o'zboshimchalik bilan ularish, qarzorlik mavjud bo'lгanda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) Iste'molchini qayta ularsha Iste'molchidan bazaviy hisoblash mидорининг 10 (o'n) barobi мидорида to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'ларни o'tказish orgali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ulanadi.

**5.5.** Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'идан yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'mиноти mavjud bo'lган hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari hisobi uchun 2,0 koeffitsiyentgacha qо'llaniladi.

Sarf qilingan ichimlik suv va qabul qilingan oqova suv hajmi iste'molchida mavjud ishlab chiqilgan Kommunal ekologik me'yordan (KEN) qat'iy nazar qoidada belgilangan taribda hisob kitob qilinadi.

**5.6.** Hisob egasi avtonom suv ta'mиноти (quduq, ochiq suv olish havzası, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash mambalariga ega bo'lган holatlarda Ta'minotchi taskiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv hisoblaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qо'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

**5.7.** Suv ta'mинотining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzası, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lгanda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalmlari oqizish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tказilgan hisoblash asbobining ko'rshakchilari bo'yicha aniqlanadi.

Iste'molchiga qarashli bo'lган avtonom suv ta'mиноти manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'mиноти tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

**5.8.** Barcha Il-guruh iste'molchilar tomonidan hududiy suv ta'mиноти korxonalariga masofadan ma'lumot uzatuvchi zamonaviy suv hisobligichlar o'rnatilishi lab etiladi, o'rnatilмаган yoki o'rnatilgan suv o'lchagichlar ko'rsatkich ma'lumotlari aloqa sisati yetarli darajada emasligi natijasida ta'minotching billing dasturiga onlays ravishda yetkazib berilmagan taqdirda 1 yanvar 2024 yildan ichimlik suv ta'mиноти va oqova suv xizmatlari uchun sunvi hisobga olish uskunasi bilan ta'minlanmagan iste'molchilar siyatida qoidaning 87<sup>b</sup> bandi bo'yicha hisob-kitob ta'minotchi xodimlarini tomonidan ogohlantirgan 30 kun muddatdan so'ng amalga oshiriladi. Ta'minotchidagi texnik sabablariga ko'ra suv o'lchagich ko'rsatkichlari billing tizimiga kiritilmay qolgan holatlarda suv o'lchagichning xaqiqiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblanadi.

## VI. Aloxida shartlar

**6.1.** Hisob egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarini to'lab, bu haqda Ta'minotchi bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, sunvi hisobga olish asbobi, plombalarning butligi va qoplanmagani debitor qarzorlik uchun javobgarlik hisobning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

**6.2.** Quyidagi holatlarda sarflangan ichimlik suv miqdori Qoidalarning 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq hisoblanadi:

a) agar Iste'molchi sunvi hisobga olish asbobi bilan ta'minlanmagan bo'lsa;

b) suv o'lchash asbobi yoki moslasmi Ta'minotchida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa;

v) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmaliga o'zboshimchalik bilan ularanib olinganda (o'zboshimchalik bilan ularish aniqlangunga qadar oxirgi tekshirish dalolatnomasi tuzilgan kundan, shuningdek agar o'zboshimchalik bilan ularish Ta'minotchiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lган bo'lsa, o'zboshimchalik bilan ularish kundan boshlab u aniqlangunga qadar, biroq uch oylik muddatdan ko'p bo'lмаган holda);

g) sunvi hisobga olish asbobi Iste'molchi aybi bilan ishdan chiqqan (sunvi hisobga olish asbobi sifatiz suv bilan birga oqib keluvchi qum, tosh va loyiqa yig'ilishi natijasida ishdan chiqqanligi haqidagi tegishli xulosha mavjud bo'lган holatlarda bundan mustasno), singan, buzilgan va bu haqda Ta'minotchi xabaridor qilinmagan taqdirda (bunda sarflangan suv miqdori, so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan to yangi sunvi hisobga olish asbobining o'rnatilish sanasigacha, ammu uch oydan oshiq bo'lмаган muddat uchun hisoblanadi);

d) sunvi hisobga olish asbobi Iste'molchiga Ta'minotchi tomonidan ogohlantirish xati yuborilgandan so'ng belgilangan muddatda davriy qiyoslovdan o'tказilganmaga.

**6.3.** Sunvi hisobga olish asbobi iste'molchining abybsiz nosoz bo'lган taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtaча sarf bo'yicha aniqlanadi. Hisob-kitobning bunday tartibi bir oydan ko'p qо'llanilishi mumkin emas.

**6.4.** Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyxalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mayjud bo'lмаган yoki muddati o'tgan hollar Ta'minotchi tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashta asos bo'ladi.

**6.5.** Iste'molchi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ularish sanasi haqidagi hujjalarni taqdim etmagan holatlarda Ta'minotchi tomonidan xokim qarori, kadastr hujjalari va shu kabilar asosida hujjal bilan tasdiqlangan ularish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqidir.

**6.6.** Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar Ta'minotchi tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida amalga oshiriladi. Bu to'lovlar Iste'molchi tomonidan 3 ish kuni ichida akseptisiz tartibda amalga oshiriladi.

**6.7.** Shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi communal kanalizatsiya tizimiga jala suvlari ruxsat etilmagan holda oqizilgan taqdirda iste'molchiga nisbatan ishlab chiqarish oqova suvlarini oqizganligi uchun amaldagi tariflarga nisbatan qо'shimcha uch barobarlik koeffitsiyent tatbiq etiladi. Hisob-kitob tashkilotning maydoni bo'yicha O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarish oqova suvlari qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normatividan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibiga muvofiq kadastr va meteorologik ma'lumotlarga binoan amalg'a oshiriladi.

**6.8.** Oqova sunvi chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yildigan cheklangan miqdordan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldag'i 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) ortiqcha oqova suvlar va ifloslantruvchi moddalarini (qoranol terisini, qog'ozni va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash, matolarni bo'yash, yog'-moy, neft va qaz mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda parrandachilikka ixtisoslashgan korxonalar va qoramol kuxshonalarini chiqindilariga) oqazish taqiqilanadi. Buning natijasida ta'minotchi tomonidan oqava suv tarmoqlarini uzbiz qo'yish uchun asos bo'ladi.

6.9. Ifloslanriturvchi moddalarни нормативдан ортиқча оқиғаныл үчүн компенсация төлөвлөрүнүн исебалаб  
уозыш тарбия О'збекистон Республикасы Вазирлар Махкамасынин 2010 йил 3 февральдеги 11-сондағы муроғиғам амалга  
осирілді.

**6.10. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi** (tariflarning noto'g'ri hisobga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida Iste'molchi yoziladigan e'tiroznomani to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda Ta'minotchiga u joylashgan manzilga borgan holda yoki Ta'minotchingin telefon raqами, elektron pochtasi yohud pochta xizmati orqali taqdim etishi kerak. E'tiroznomani Iste'molchini to'lov talabnomasini va xujjatida ko'sratilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilinaydi.

E'tiroznomma Ta'minotchi tomonidan 10 kun muddatda ko'rib chiqiladi. Ular asosli deb topilsa, to'langan ortiqcha summa keyingi to'lov hujjati hisobiga o'tkaziladi. Iste'molchi e'tiroznomma ko'rib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotdan, ta'qdim etgan telefon raqami (shu jumladan mazkur telefon raqamning telegram ijtimoiy tarmog'idagi profili) yoki pochta xizmati orqali, e'tiroz ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan muddat tugagandan keyin 3 kun muddatda xabardor qilinishi lozim.

Agar ko'rsatilgan muddat ichida iste'molchi xabardor qilinmasa, masala iste'molchi foydasiga hal qilingan hisoblanadi.

**6.11.** II va III guruh iste'molchilarning suv ta'minoti va oqova sunni chiqarish xizmatlari yuzasidan debitor qazordligi bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarini solishtirish dalolatnomasi imzolalmasi taqdirda, qarzni undirish iste'molchining bankdagi hisobvariga qo'shi lo'v tabalabnomasini qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## **VII. Nizolarni xal etish tartibi va korrupsiyaga qarshi talablar**

**7.1.** Taraflar o'rtaida ushu shartnomaga oid boshqa holatlardan yuzasidan kelib chiqadigan nizolar tarafning o'zaro kelishuv orqali hal qilinadi. Taraflar tomonidan nizolar bo'yicha o'zaro kelishuviga erishilmasa, nizolar da vogar joylashtir qitrosidagi surʼiyotlari hal etiladi.

7.2. Shartnomalning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarini tushunishi haqidagi bir-birini ishonchtridi va ularga amal qilishini kafolatalaydi.

**7.3.** Iste'molechi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynid u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va normativ huqujalaringin Korrumpsiyaga carshi tegishli shartlari va talabalariga qat'iv rivoj etish maiburivatini oladi.

## VIII. Fors – major

**8.1.** Agar ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalarini va boshqa yengib bo'maydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofstalar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlarni ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etildilar.

Mazzur shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirg'an vaqtga mutanosib ravishda uzavtiriladi.

**8.2.** Fors-major holati mayjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarini ko'rsatqan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqdagi profilalar va rasmiy sahifalar) orografi oshqalantirishi lozim.

**8.3.** Agar fors-major holatlari shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

## **IX. Sharhnomaning amal qilish muddati**

9.1. Ushbu shartnoma ikki nushada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2. Shartrnoma imzolangan va g'aznachilik bo'limmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va

“31” 12 2024 yilgacha amal qiladi.

**9.3.** Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va taraflar tomonidan imzolanshi shart.

## X. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

«TA'MINOTChI»

Manzil: Samarqand shahar, O'zbekiston  
ko'chasi 114 A yu

Bank: ATIB "Ipoteka-bank" Samarqand  
viloyat filiali

Bank kodi: 00312, STIR: 200613125

h/r: 22638000800307743396

XHTUT: 90213, tel/faks: 66-2370408

Rahbar \_\_\_\_\_

M.O. \_\_\_\_\_ (F.I.O. imzo)



Usbu shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Tugayorinik kodekasi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-hudugiy bazasi to'g'risida"gi Qonumi tahliliga maydon berilishiga tutizilgan.

Yuriskonsult: \_\_\_\_\_

|  |  |
|--|--|
| SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINSIYATI   |  |
| CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI |  |
| Manzil:  | Samarqand shahar, Ulug'bek ko'chasi 77-uy                    |
| Tel:   | (99866) 234-76-92, 234-76-86                                 |
| g'az/h-r:                                      | Tel/Fax: + (99866) 201878451, STIR: 92110                    |
| Bank kodи:                                     | NIN: 201878451, STIR: 92110 Moliya vazirligi                 |
| XHTUT:   | Urusanad viloyati q'aznachilligi boshhqarmasi Yangona q'azna |
| Shaxsiyler:                                    | KB 2340 2000 3001 0000 1010                                  |
| Bank:  | Merkantib bank XIXKM Toshkent shahri boshhqarmasi            |
| Bank kodи:                                     | STIR: NIN: 201122919   |

(g'aznachilik bo'limini nomi)



Rahbar \_\_\_\_\_

(F.I.O. imzo)

*KB Yuneszo 09*

« 11 » 01 2024 y.

*N. Seccet*  
*J. Eshmonomatov*

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti va  
 "Samarkand suv ta'minoti" MChJ bilan 79199120 umumiy summasida 2024 yil 11 yanvardagi №9900066112  
 sonli shartnomaga  
 Illova 1

Tashlanadigan okova suvi mikdori va xisobi

| Oylar choraklar | Mikdori kub metr | narxi | Jami     |
|-----------------|------------------|-------|----------|
| I чорак         | 16445            | 4816  | 79199120 |
| Январ           | 5627             | 4816  | 27099632 |
| Феврал          | 5627             | 4816  | 27099632 |
| Март            | 5191             | 4816  | 24999856 |
| II-чорак        | 0                | 4816  | 0        |
| Апрел           | 0                | 4816  | 0        |
| Май             | 0                | 4816  | 0        |
| Июн             | 0                | 4816  | 0        |
| III-чорак       | 0                | 4816  | 0        |
| Июл             | 0                | 4816  | 0        |
| Август          | 0                | 4816  | 0        |
| Сентябр         | 0                | 4816  | 0        |
| IV-чорак        | 0                | 4816  | 0        |
| Октябр          | 0                | 4816  | 0        |
| Ноябр           | 0                | 4816  | 0        |
| Декабр          | 0                | 4816  | 0        |



X.B. Yunusov